



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5



SAYFIDDINOV Aqliddin Anvarjon o'g'liO'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik
va huquqiy siyosat instituti tayanch doktorantiE-mail: aqliddinsayfiddinov@gmail.com

HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA XALQ DEPUTATLARI MAHALLIY KENGASHLARINING VAKOLATLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): SAYFIDDINOV A.A. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda xalq deputatlari mahalliy kengashlarining vakolatlari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 5 (2025) B. 26-34.

5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalq deputatlari mahalliy kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o'rni va vakolatlari nazariy hamda huquqiy jihatdan tahlil etilgan. Mazvuning dolzarbligi mamlakatda olib borilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar, davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish siyosati hamda mahalliy vakillik organlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan belgilanadi. Maqolada mahalliy kengashlarning hududiy dasturlarni qabul qilishdagi ishtiroki, mahalliy budjetni tasdiqlash va uning ijrosini nazorat qilish vakolatlari, shuningdek ijro hokimiyati faoliyati ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatishdagi konstitutsiyaviy maqomi yoritilgan.

Tadqiqot jarayonida mahalliy kengashlar faoliyatiga oid xalqaro ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilinib, milliy qonunchilik normalari amaliyot bilan uyg'un holda o'rganildi. Shu bilan birga, mahalliy kengashlar va hokimlar o'rtasidagi munosabatlarda "Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" tamoyilining huquqiy va amaliy ahamiyati ko'rib chiqildi.

Tadqiqot natijalari mahalliy kengashlarning davlat boshqaruvi tizimida institutsional maqomi mustahkamlanayotganini va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlaridagi vakolatlari hududiy boshqaruv barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ijtimoiy himoya, atrof-muhit muhofazasi, xalq hokimiyatchiligi, davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish, nazorat qilish, moliyaviy suverenitet, konstitutsiyaviy islohotlar, mahalliy soliqlar.

САЙФИДДИНОВ Аклиддиндокторант Института законодательства и правовой
политики при Президенте Республики УзбекистанE-mail: aqliddinsayfiddinov@gmail.com

ПОЛНОМОЧИЯ МЕСТНЫХ СОВЕТОВ НАРОДНЫХ ДЕПУТАТОВ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ТЕРРИТОРИЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проведён теоретико-правовой и практический анализ полномочий и роли местных Советов народных депутатов в социально-экономическом развитии территорий. Актуальность темы обусловлена проводимыми в Узбекистане конституционными реформами, политикой децентрализации государственного управления, а также мерами по повышению эффективности деятельности представительных органов на местах. В статье раскрывается участие местных Советов в разработке и принятии территориальных программ развития, их полномочия

по утверждению и контролю исполнения местных бюджетов, а также конституционный статус в обеспечении действенного контроля за деятельностью исполнительной власти.

В ходе исследования проанализированы международные научно-теоретические подходы к деятельности местных Советов, а национальное законодательство рассмотрено в единстве с практикой его применения. Особое внимание уделено принципу «Сильный Совет, подотчётный и инициативный хоким» и его значению в регулировании взаимоотношений между представительными и исполнительными органами власти.

Результаты исследования показали укрепление институционального статуса местных Советов в системе государственного управления и возрастание их роли в обеспечении устойчивости территориального управления посредством реализации социально-экономических полномочий

Ключевые слова: местный бюджет, социально-экономическое развитие территорий, социальная защита, охрана окружающей среды, народовластие, децентрализация государственного управления, контроль, финансовый суверенитет, конституционные реформы, местные налоги.

AQLIDDIN Sayfiddinov

PhD student at the Institute of Legislation and Legal Policy
under the President of the Republic of Uzbekistan

E-mail: aqliddinsayfiddinov@gmail.com

POWERS OF LOCAL COUNCILS OF PEOPLE'S DEPUTIES IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF TERRITORIES

ANNOTATION

This article provides a theoretical and legal as well as practical analysis of the role and powers of local councils of people's deputies in the socio-economic development of territories. The relevance of the topic is determined by the ongoing constitutional reforms in Uzbekistan, the policy of decentralization of public administration, and measures aimed at improving the effectiveness of representative bodies at the local level. The article highlights the participation of local councils in the adoption of territorial development programs, their authority in approving and overseeing the execution of local budgets, as well as their constitutional status in ensuring effective oversight of the executive branch.

The study examines international scholarly approaches to the role of local councils, while national legislation is analyzed in conjunction with its practical application. Special attention is given to the principle of "Strong Council, accountable and proactive hokim" and its significance in regulating the relationship between representative and executive authorities.

The findings indicate the consolidation of the institutional status of local councils within the system of state governance and underscore their growing role in ensuring the stability of territorial administration through the exercise of socio-economic powers.

Key words: local budget, socio-economic development of territories, social protection, environmental protection, people's sovereignty, decentralization of public administration, control, financial sovereignty, constitutional reforms, local taxes.

O'zbekiston Respublikasida hududlarni barqaror va muvozanatli rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish hamda davlat boshqaruvida joylarda xalq vakillarining rolini mustahkamlash davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda xalq deputatlari mahalliy kengashlarining rolini oshirish, ularni hududiy ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda faol subyekt sifatida faollashtirish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonun mahalliy kengashlarga muayyan vakolatlar berilgan bo'lib, bu vakolatlar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda hal qiluvchi

ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, keyingi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va amalga oshirilgan islohotlar kengashlar vakolatlari hamda masuliyatini yanada oshirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 11-avgustda Buxoro viloyat xalq deputatlari kengashida bo'lib o'tgan yig'ilishida mahalliy kengash deputatlariga qarata: "Agar xulosa qilmasanglar, buni zamon ko'tarmaydi. Faqat va faqat Kengash, kengash, kengash. Qonunlar nuqtai nazaridan, talab nuqtai nazaridan, "Yangi O'zbekiston" shiori nuqtai nazaridan joylarda kim ishlamayotgan bo'lsa ketishi kerak, menga taklif beringlar. Kengash ovozi baralla xalq ovozi bo'lishi kerak, xalqning dardi bilan yashashi kerak. Kengash qaror qildimi, Qonun bo'lishi kerak. Nimaga desangiz, jamiyatimizda sifat nuqtai nazaridan odamlarning talabi o'sib bormoqda" [1], deb ta'kidlagani ham yuqoridagi fikrlarning isbotidir.

Shuningdek, Jahon banki instituti vakillari Axtar Sheffer va Eje Yilmaz to'g'ri ta'kidlaganidek, "Mahalliy kengashlar hududiy rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini jamoa ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular faol ishtirok etmasa, ijtimoiy-iqtisodiy natijalar muvozanatsiz qoladi".

Tadqiqotchilar Nompumelelo P.Mokoeno, Jon N.Molepolar keltirib o'tganidek, fuqarolarning mahalliy kengashlar orqali mahalliy qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etishi inklyuziv va barqaror rivojlanishga zamin yaratadi [2].

Gerrit van der Val'dt esa o'z izlanishlarida mahalliy kengashlar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik shoklarga qarshi chidamli qilish uchun iqtisodiy siyosatlarni shakllantiradi va amalga oshiradi [3], degan xulosaga kelgan edi.

Sidney universiteti mahalliy o'zini-o'zi boshqarish markazi direktori, professor Roberta Rayan o'z tadqiqotlarida mahalliy hokimiyat doirasida iqtisodiy rivojlanish sohasidagi rollar juda xilma-xilligini, Kengashlarning ko'pchiligi uchun iqtisodiy rivojlanish hali ham "umumiy" emas, balki "qo'shimcha" funktsiya sifatida qaralishini, bu esa ularning mahalliy va hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi ijobiy rolini kamsitishga olib kelishi mumkinligini, u o'z tadqiqotida kengashlarning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini shakllantirishda ichki va tashqi tasavvurlarning ahamiyatini ilgarigi safga olib chiqqanligini bayon qilgan [4].

Norbert Kerst esa o'z tadqiqotlarida, samarali mahalliy boshqaruv — bu fuqarolarning ehtiyojlariga javob beradigan, shu bilan birga davlat siyosatini amalga oshiradigan ikki yo'nalishda amal qiladigan institutdir, deb ta'rif bergan edi [5].

Yuqorida keltirilgan xalqaro tadqiqotchilarning fikrlari va tahlillari mahalliy kengashlarning hududiy rivojlanishdagi strategik ahamiyatini ochib beradi. Ular nafaqat demokratik ishtirokni ta'minlovchi, balki mahalliy siyosatni shakllantiruvchi va ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni saqlovchi muhim institutlar sifatida namoyon bo'ladi. Qayd etilgan ilmiy xulosalar milliy qonunchiligimiz tizimida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan ham o'z tasdig'ini topgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 122-moddasida xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari quyidagilar belgilangan:

1) tegishli mahalliy budjetlarni ko'rib chiqish va qabul qilish, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

2) hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash;

3) hokimni lavozimga tasdiqlash, uning faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni eshitish;

4) Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish [6].

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarning vakolatlari aniq va funksional tarzda belgilab qo'yilgani, ularning huquqiy maqomi va institutsional vazifalarini mustahkamlaydi. Mazkur moddadagi normalar xalq

vakillik organlarini mahalliy boshqaruv tizimida faqat maslahatchi emas, balki budget siyosatini shakllantiruvchi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rejalashtiruvchi, hokim faoliyatini baholovchi, ijro hokimiyati ustidan ta'sirchan nazorat olib boruvchi siyosiy institut sifatida huquqiy jihatdan rasman e'tirof etadi.

Xususan, mahalliy budgetlarni qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish vakolati orqali Kengashlar moliyaviy suverenitetning mahalliy darajadagi amalga oshiruvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Hududiy rivojlanish va ijtimoiy himoya dasturlarini tasdiqlash vazifasi esa ularning strategik rejalashtirish va manzilli siyosat yuritishdagi ishtirokini mustahkamlaydi. Hokimni lavozimga tasdiqlash va uning hisobotini eshitish orqali esa Kengashlar ijro hokimiyati ustidan Kengash nazorati mexanizmini amalga oshirishga huquqiy asos yaratiladi.

Yuqoridagi tahlillarga ko'ra, Konstitutsiyasining 122-moddasida mahalliy Kengashlarning vakolatlarini aniq belgilash orqali, ularni hududiy davlat boshqaruvida mas'ul, hisobdor va ta'sirchan organ sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa Konstitutsiyaviy islohotlar doirasida mamlakatdagi xalq hokimiyatchiligini amalda ro'yobga chiqarish, mamlakatda amalga oshirilayotgan nomarkazlashtirish jarayonini jadallashtirish va demokratik boshqaruvni institutsional asosda mustahkamlash maqsadlariga to'la mos keladi.

Bugungi kunga kelib "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan maqsadlar, ya'ni mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam "ovoziga" aylantirish, hududiy boshqaruvni "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida yo'lga qo'yish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [7].

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasida mahalliy Kengashlarning vakolatlari keltirib o'tilgan bo'lib, mazkur qonunda quyidagilar mahalliy kengashlarning hududlarni iqtisodiy rivojlantirish sohasidagi vakolatlari sifatida belgilangan:

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasini hamda uni qurish qoidalarini tasdiqlash;
- viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budgetlarini, shuningdek tumanlar va shaharlar budgetlarini tegishincha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko'rib chiqish hamda qabul qilish, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- viloyatlarning viloyat budgetlari, Toshkent shahrining shahar budgeti hamda tumanlar va shaharlar budgetlari daromadlarining prognozlarini ma'lumot uchun qabul qilish;
- viloyatlarning viloyat budgetlariga va Toshkent shahrining shahar budgetiga, tumanlar va shaharlar budgetlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qarorlarni tasdiqlash;
- tegishli budgetlardan moliyalashtiriladigan hududiy budget mablag'larini taqsimlovchilarning budget mablag'laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar to'g'risidagi hisobotlarini eshitish;
- viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budgetlarining, shuningdek tumanlar va shaharlar budgetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishincha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko'rib chiqish hamda tasdiqlash;
- mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida belgilash;
- hokimni va uning o'rinbosarlarini lavozimga tasdiqlash, hokimni va uning o'rinbosarlarini lavozimdan ozod etish, ularning faoliyatiga doir hisobotlarini, shuningdek hokimlarning viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlarini tinglash belgilangan [8].

Mazkur qonunda quyidagilar mahalliy kengashlarning hududlarni ijtimoiy rivojlantirish sohasidagi vakolatlari sifatida belgilangan:

- aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash;
- yoshlar muammolarini o'rganish, ularni hal etishga ko'maklashish, yosh avlodning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish choralarini ko'rishga qaratilgan ishlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hududiy rahbarlarining hisobotlarini har olti oyda eshitish;
- tegishli prokurorlarning faoliyati to'g'risidagi axborotini har yili eshitish;
- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish;
- tegishincha sog'liqni saqlashni boshqarish hududiy organlari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish;
- tegishincha hududiy adliya boshqarmalari va tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlari boshliqlarining axborotini eshitish;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) mintaqaviy vakilining inson huquqlari, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish holati to'g'risidagi ma'ruzasini har yili eshitadi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) mintaqaviy vakilining tegishli hududda bola huquqlari, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish holati to'g'risidagi ma'ruzasini har yili eshitadi;
- tegishli hududda mahalliy ahamiyatga molik monumental yodgorliklarni qonunchilikda belgilangan tartibda o'rnatish va buzish (ko'chirish) to'g'risida qarorlar qabul qiladi [9].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda xalq deputatlari mahalliy kengashlariga bir qator vakolatlar berilgan. Jumladan, hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishga birinchi navbatda mas'ul bo'lgan hokimni va uning o'rinbosarlarini lavozimga tasdiqlash, hokimni va uning o'rinbosarlarini lavozimdan ozod etish, ularning faoliyatiga doir hisobotlarini, shuningdek hokimlarning viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlarini tinglash vakolati Kengashlarning tegishli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda richag vazifasini bajarish vakolatini beradi. Shuni ta'kidlash joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 120-moddasida xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qilishi, viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o'zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi to'g'risida qat'iy konstitutsiyaviy norma kiritilishi davlatchiligimiz tarixida muhim siyosiy hodisa bo'ldi. Chunki mustaqillikka erishganimizdan yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinguniga qadar joylarda tegishli hokim Kengash raisi vazifasini bajarib kelgan. Natijada hokim o'zi hisobdor bo'lgan Kengashga raislik qilgani, deputatlarni mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatidan, jumladan hokimlarning viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlarini tinglash jarayonida ularning faoliyatiga tanqidiy baho berish imkoniyatini cheklab kelgan edi. Mazkur islohot, bizning nazarimizda, mahalliy kengashlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda sohasidagi qonunchilikda belgilangan vakolatlarini samarali va natijador bo'lishiga imkoniyat yaratib berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabr kunidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Hisobotlarga e'tibor bersak, mahalliy Kengashlar faoliyatida go'yoki ijobiy o'zgarishlar yuz berayotgandek tuyuladi, lekin ular faqat raqamlarda aks etmoqda, xolos. Bizga raqamlar emas, aniq natija kerak. Qachonki, hududlardagi vaziyat ijobiy tomonga

o'zgarsa, budget ijrosi to'liq ta'minlansa, jinoyatchilik kamaysa, yangi ish o'rinlari yaratilsa, eng muhimi, xalqimizning turmush darajasi yaxshilansa, mahalliy Kengashlar faoliyatiga ijobiy baho bersa bo'ladi" deb ta'kidlashi ham O'zbekiston Respublikasida mahalliy kengashlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim instansiyaga aylantirish zaruriyatining ifodasidir [10].

Mahalliy kengashlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga oid dolzarb masalalarni hal qilish bo'yicha vakolatlarini kengaytirish, xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yobga chiqarishda 2024-yil 2-fevraldagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-28-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni muhim hujjat hisoblanadi.

Mazkur Farmonning 1-ilovasida jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining rolini oshirish maqsadida xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga 33 ta vakolatni o'tkazish taklif qilinadi [11].

Mazkur Farmon — O'zbekistonda hududiy boshqaruvni isloh qilish va xalq vakillari orqali boshqaruv samaradorligini oshirish yo'lidagi muhim huquqiy qadam hisoblanadi. Mahalliy kengashlarga 33 ta real, ta'sirli vakolatni berish nafaqat joylarda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni manzilli hal etish, balki haqiqiy xalq hokimiyatchiligini institutsional shaklda tatbiq etishning huquqiy poydevoridir. Mazkur farmonda belgilangan vakolatlarning mahalliy kengashlarga berilishi hududlarning ichki potentsiali va xususiyatlariga mos siyosat yuritish imkonini beradi. Bu esa har bir hududning tabiiy, iqtisodiy, ekologik va demografik xususiyatlaridan kelib chiqib rivojlanish dasturlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'riflarni belgilash, imtiyozli guruhlarni aniqlash, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini tashkil etish bilan bog'liq vakolatlar ijtimoiy muvozanatni ta'minlash, aholining zaif qatlamlarini himoya qilish, joylarda inson kapitali rivojini targ'ib qilish imkonini yaratadi. Bu "inklyuziv rivojlanish" modelini tatbiq etishda muhim bo'lib, hududiy kambag'allik va ishsizlik darajasini pasaytiradi. Chiqindilarni ko'mish, suv ta'minoti, havo ifloslanishini nazorat qilish kabi vakolatlar hududdagi ekologik muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha qarorlarni mahalliy kengashlar qabul qilishi — joylardagi ekologik xavflarga nisbatan manzilli, tezkor va masuliyatli munosabat imkonini beradi. Shu tariqa, mahalliy kengashlar vakolatlarini kengaytirish — hududlarning rivojlanishini nomarkazlashgan holda tashkil etish, mahalliy tashabbus va masuliyatni kuchaytirish, davlat boshqaruvida samaradorlik va natijadorlikni taminlash singari strategik maqsadlarga xizmat qiladi.

Mazkur Farmonning 2-ilovasida mahalliy kengash vakolatlarini tizimlashtirish nazarda tutilgan bo'lib, mazkur islohot xalq deputatlari mahalliy Kengashlari vakolatlarini huquqiy mexanizmlarni shaffoflashtiradi; boshqaruvni manzilli, samarali va hisobdor qiladi; hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda faol deputatlik nazorati va tashabbuslarini amalga oshirishga sharoit yaratadi; institutsional barqarorlikni ta'minlab, haqiqiy xalq hokimiyatchiligining amaliy namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalliy kengashlarning rolini va ma'suliyatini oshirishda 2024-yil 20-dekabrda qabul qilingan "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va ma'suliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-223-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonialohida ahamiyat kasbetadi. Jumladan, mazkur farmon bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman va shaharlar kengashlari tomonidan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yillik dasturi mahalliy budget parametrlari bilan birga belgilangan muddatlarda tasdiqlanishi tartibi joriy etildi [12]. Budget loyihasi va rivojlanish dasturi bir vaqtda tasdiqlanishi budget mablag'larining maqsadli va aniq yo'naltirilishiga xizmat qiladi. Natijada hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yillik dasturi "qog'ozbozlik" emas, aniq natijalarga yo'naltirilgan strategik hujjatga aylanadi.

Mazkur Farmon bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlariga:

- tuman (shahar)larning iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng kam va eng yuqori qat'iy belgilangan stavkalari doirasida tuman (shahar)lar kesimida yakka tartibdagi tadbirkorlarga qat'iy soliq stavkalari miqdorini belgilash;

- soliq solish maqsadida qo'llanadigan ko'chmas mulk ijara qiymatining 1 metr kvadrati uchun o'rnatilgan minimal miqdorlariga nisbatan tuman (shahar)lar kesimida 2 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent, xususan, Toshkent shahrida ushbu oshiruvchi koeffitsiyentni yer solig'i kabi zonalar kesimida qo'llash;

Xalq deputatlari tuman (shahar)lar kengashlariga:

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga
- 0,7 barobardan 1,5 barobargacha kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash (qishloq xo'jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari va ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to'lovchilar bundan mustasno);

- noruda qurilish materiallari bo'yicha (sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari) yer qaridan foydalanganlik uchun soliqning qat'iy belgilangan stavkalariga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilash vakolatlari berildi [13].

Mahalliy kengashlar endilikda iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo'lgan tumanlarda soliqni pasaytirish orqali tadbirkorlikni rag'batlantirish, yoki rivojlangan yoki yuqori daromadli tumanlarda esa oshirish orqali budjet tushumlarini oshirish imkoniyatini, bu esa iqtisodiy notenglikni kamaytirish, hududlar o'rtasida soliq manbalarini intellektual boshqarish, tadbirkorlik uchun qulay iqtisodiy muhitni yaratishga olib keladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, PF-223-sonli Farmon orqali mahalliy kengashlar vakolatlarining kengayishi – davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish, joylarda tashabbuskorlikni oshirish va mahalliy budjetlarni mustahkamlashga qaratilgan ijobiy qadam hisoblanadi.

So'nggi yillarda xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yobga chiqarish borasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini tashvishga solayotgan dolzarb masalalarni hal etish bo'yicha vakolatlarining takomillashtirishda 2025-yil 23-iyun kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" tamoyilini ro'yobga chiqarishda muhim hujjat hisoblanadi.

Mazkur Farmon bilan quyidagi vakolatlarni xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o'tkazish belgilandi:

- (a) davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini belgilash;

- (b) dafn etish joylarini saqlash qoidalarini va dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tariflar miqdorini tasdiqlash;

- (v) ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish;

- (g) yo'llarning ayrim qismlarida harakatlanish tezligini oshirishga yoki kamaytirishga (tegishli yo'l belgilari o'rnatib) ruxsat berish [14].

Ushbu Farmon bilan mahalliy Kengashlarga davlat ko'chmas mulkidan foydalanish, dafn etish xizmatlari, ish o'rinlari rezervini belgilash va yo'l harakati xavfsizligini tartibga solishga

oid vakolatlarni berish mahalliy darajada javobgarlik va ta'sirchanlikni oshiradi. Bu o'zgarish hududlarda ijtimoiy adolat, iqtisodiy manzillilik va boshqaruv samaradorligini ta'minlashga xizmat qilib, mahalliy hokimiyat organlarining funksional mustaqilligini mustahkamlaydi va xalq hokimiyatchiligining institutsional namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

“O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasi” bilan quyidagilar belgilandi:

(a) viloyat, Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimi o'rinbosarligiga nomzodlarni tegishli mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalarida dastlabki tarzda muhokama qilish, Kengash sessiyalarida nomzodlar tomonidan o'z yo'nalishlari bo'yicha hududni rivojlantirish dasturlarini taqdim etish tartibini joriy etish;

(b) mahalliy Kengashlarda deputatlar va jamoatchilik vakillari ishtirokida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining ayrim muhim ijtimoiy masalalar yuzasidan axborotlarini eshitish bo'yicha “Kengash soati” institutini joriy qilish;

(v) mahalliy Kengashlar faoliyatining tashkiliy-moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash masalalarini mahalliy budjet parametrlarida alohida ko'rsatish orqali mehnatga haq to'lash, rag'batlantirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash shartlarini mahalliy ijro etuvchi hokimiyat darajasidan past bo'lmagan holda belgilash;

(g) mahalliy Kengashlarning Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyalariga Kengash qarori bilan lavozimga tasdiqlanadigan, tayinlanadigan, lavozimga tayinlanishida Kengash roziligi olinadigan mansabdor shaxslar tomonidan odob-axloq normalarini buzganlik bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish huquqini berish;

(d) mahalliy Kengash qarorlarini qabul qilish jarayonlarining ochiqqligini taminlash maqsadida fuqarolarning sessiya ishini bevosita kuzatish imkoniyatini yaratish. Bunda mahalliy Kengash sessiyalarida fuqarolarning sessiya ishiga aralashish huquqisiz kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi tartibini belgilash [15].

Viloyat, Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimi o'rinbosarligiga nomzodlarlar o'z yo'nalishlari bo'yicha hududni rivojlantirish dasturlari bo'yicha muhokamalarni tashkil etish — Kengashlar ijro hokimiyati tarkibini shakllantirishda ishtirokchi emas, balki baho beruvchi va tasdiqlovchi subektga aylanadi. Masalan, hokim o'rinbosari sifatida ta'lim yoki iqtisodiyot sohasiga mas'ul shaxs o'z dasturini deputatlar oldida himoya qilishi – hududni rivojlantirishda kengashlar ishtirokini institutsionallashtiradi.

“Kengash soati” instituti joriy etilishi mahalliy ijro organlari rahbarlarining faoliyati yuzasidan doimiy va jamoatchilik ishtirokidagi javobgarlik mexanizmlarini yaratadi. Bu orqali Kengashlar ijro hokimiyati faoliyati ustidan haqiqiy Kengash nazoratini amalga oshirish, fuqarolar esa hududiy siyosatda ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi.

Mahalliy budjetda kengash faoliyati uchun alohida parametr kiritilishi — vakillik organlarining tashkiliy va moliyaviy mustaqilligini taminlaydi, bu esa Kengashlarning faolligini oshiradi, ularning tashabbuskorligini rag'batlantiradi va kadr salohiyatini mustahkamlaydi.

Reglament va deputatlik odobi bo'yicha doimiy komissiyalarga nazorat funksiyasini berish — Kengashlarning kadrlar siyosati va axloqiy me'yorlarga ta'sirini kuchaytiradi, ijro hokimiyati mansabdorlarining faoliyatida mas'uliyat va intizomni mustahkamlaydi.

Sessiyalarda kuzatuvchi sifatida fuqarolar ishtirokini yo'lga qo'yish, kengash sessiyalarini onlayn translatsiya qilishni yo'lga qo'yish — Kengash faoliyatini shaffof va jamoatchilik nazoratiga ochiq holga keltiradi, bu esa xalq hokimiyatchiligining amaldagi isboti bo'ladi.

Konsepsiyada nazarda tutilgan mazkur vakolatlari va institutlari mahalliy Kengashlarning siyosiy subyekt sifatida rivojlanishi, jamoatchilik nazorati mexanizmlarining mustahkamlanishi, ijro

hokimiyati bilan o'zaro muvozanat va mas'uliyatli hamkorlik tizimining yo'lga qo'yilishi hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan interaktiv aloqalarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu esa "xalq hokimiyati"ni qaror toptirishning institutsional poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 11-avgustda Buxoro viloyat xalq deputatlari kengashida bo'lib o'tgan yig'ilishidagi nutqi // URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/14/kengash/>
2. "World Bank. 2002. Ethiopia : Country Procurement Assessment Report, Volume 2. Data and Analysis. © World Bank. <http://hdl.handle.net/10986/15269> License: CC BY 3.0 IGO."// URL: <https://hdl.handle.net/10986/15269>
3. Van der Walddt, G. (2018). Local economic development for urban resilience: The South African experiment. *Local Economy*, 33(7), 694-709 // URL:<https://doi.org/10.1177/0269094218809316> (Original work published 2018)
4. Roberta Ryan, (2018). Local government's important role in local and regional economic development: report // URL: <https://www.ipwea.org/>
5. Kersting, N., Caulfield, J., Nickson, R.A., Olowu, D., Wollmann, H. (2009). Good Local Governance. Local Government Reform in Global Perspective. An Introduction. In: *Local Governance Reform in Global Perspective*. VS Verlag für Sozialwissenschaften. URL: https://doi.org/10.1007/978-3-531-91686-6_1 // Good Local Governance. Local Government Reform in Global Perspective. An Introduction | SpringerLink
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 122-modda // 30.04.2023// URL:<https://lex.uz/docs/6451070>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son // URL: <https://lex.uz/docs/6600413>
8. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni, 02.09.1993-yildagi 913-XII-son // URL: <https://lex.uz/docs/112170>
9. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni, 02.09.1993-yildagi 913-XII-son // URL: <https://lex.uz/docs/112170>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 22.12.2017//URL: <https://president.uz/uz/lists/view/1371>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 02.02.2024-yildagi PF-28-son // URL:<https://lex.uz/ru/docs/6789350>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 20.12.2024-yildagi PF-223-son // URL:<https://lex.uz/docs/7271094>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 20.12.2024-yildagi PF-223-son // URL:<https://lex.uz/docs/7271094>.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 23.06.2025-yildagi PF-98-son // URL:<https://lex.uz/docs/7594283>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 23.06.2025-yildagi PF-98-son // URL: <https://lex.uz/docs/7594283>.

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416